

Date: 19th December-2025

KASBI TUMANIDAGI OBOD KOMPONENTLI DROMONIMLAR

Quyayov Samandar Sayliyevich

QarDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Bu maqolada Kasbi tumanidagi joy nomlari, hamda obod komponentli dromonimlar va ularning tasnifi, tilshunoslikka xos manbalarga tayangan holda tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: toponimlar, dromonimlar, leksik tahlil, semantik analiz, etimologiya, tarixiy manbalar, madaniy meros, joy nomlari, tilshunoslik, geografiya.

Olamda har narsaning nomi bor. Eng ulkan predmetlardan tortib koʻrinmas zarrachalarning oʻz nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud boʻlishi mumkin emas. Nom narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Tushunchalarni farqlash joy nomlariga ham bevosita taalluqli. Har qanday joyning nomi, uni boshqalardan farqlaydigan atamasi hamda shu atama bilan bogʻliq soʻzlar guruhi mavjud boʻladi. Joy nomlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan birlik – toponimdir. Toponim yunoncha soʻz boʻlib, *topos* – joy, *onoma* – nom. Demak, toponim – joy nomi¹⁰. Oʻzbek tilida *adirlar, bogʻlar, bozorlar, guzarlar, daryolar, dengizlar, koʻllar, koʻpriklar, koʻchalar, mahallalar, maschitlar, ovular, tepalar, togʻlar, choyxonalar, choʻllar, shaharlar, ekinzorlar, qabristonlar, qalʼalar, qishloqlar, quduqlar, hovuzlar* kabi yuzlab geografik obyektlar mavjud va ularning barchasi qadimdan oʻz nomlariga ega. Bu geografik joy nomlari *agroonimlar, antropooykonimlar, antropotoponimlar, gelonimlar, gidronimlar, drimonimlar, drionimlar, dromonimlar, komonimlar, limnonimlar, oykonimlar, oronimlar, paragagonimlar, pelagonimlar, polisonimlar (polionimlar), topamonimlar, speleonimlar, teotoponimlar, topotoponimlar, urbonimlar, fitonimlar, fitooykonimlar, xoronimlar, etnooykonimlar, etnotoponimlar* singari xalqaro atamalar ostida birlashadi¹¹. Ushbu maqolamizda yuqorida berilgan toponim turlaridan dromonimlarga alohida toʻxtalamiz. Dastlab bu atama izohiga eʼtibor qaratsak, termin haqida “Oʻzbek onomastikasi terminlarining izohli lugʻati”da quyidagicha taʼrif berilgan: **Dromonim** (yu. Dromog – dromos - yoʻl + onoma – atoqli ot) – harakatlanishga moʻljallangan har qanday (yer usti, yer osti, suv usti, suv osti) yoʻllarning atoqli oti. Toponim turi¹². Izlanishlar natijasida Kasbi tumanidagi dromonimlarning statistikasiga nazar tashlasak, tuman miqyosida 2700 ga yaqin koʻcha nomi boʻlib ulardan *obod* komponentlilari 40 ga yaqin. Mas.: *Obodmavze, Obodxiyobon, Oboddiyoy, Obodtepa, Obodgoʻsha, Oboddiyoy, Obodyurt, Obodturmush, Sherobod, Daryoobod, Sharqobod, Oʻrozobod, Mirobod, Oʻrinobod, Xalqobod, Zafarobod* kabi.

¹⁰ Adizova N.B. Buxoro tumani mikrotoponimlarining leksik- semantik tadqiqi: Filol fan. boʻyicha fals. dokt. (PhD) diss. – Buxoro. 2021

¹¹ Karimov S.A., Boʻriyev S.N. Oʻzbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006. – B. 44.

¹² Begmatov E., Uluqov N. Oʻzbek onomastikasi terminlarining izohli lugʻati. – Namangan, 2006. – B. 29.



Date: 19thDecember-2025

Obod soʻziga “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da: “*odam yashaydigan, ishlov berilgan, gullab yashnayotgan*”¹³ maʼnosini beruvchi soʻz sifatida qaralgan. “Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati”da esa: “*qulay va shinam*”, “*seraholi*”¹⁴ maʼnolarida ishlatilgan. Prof. T.Nafasovning “Qarshi shahri mahalla va koʻcha nomlari” kitobida: “*Obod* soʻzi yordamida qishloq nomlarining yasalishi oʻzbek tilining qonunlaridan biri hisoblanadi: Xalqobod, Elobod, Paxtaobod, Yangiobod, Usmonobod, Fayzobod, Jahonobod. *Obod* soʻzining qishloq nomlarini yasashi IX asrlarda boshlangan. XI asrda ancha faol boʻlgan. Yangidan tashkil boʻlgan, ayrim shaxs yoki jamoa tomonidan yaratilgan aholi maskanlariga *obod* soʻzli nomlar qoʻyilgan. *Obod* soʻzi fors-tojik tiliga mansub. Lekin oʻzbek tilida ming yildan oshiq, davrdan beri qishloq nomlarini yasash fazilatiga va vazifasiga ega boʻlgan deyilgan”. Bundan koʻrinib turibdiki, *obod* soʻzi insonlar istiqomat qiladigan, shart-sharoiti qulay, aholi zich joylashgan maʼnolarida qoʻllash mumkin. Prof. T.Nafasovning maʼlumotlariga tayangan holda Kasbi tumanidagi *obod* komponentli dromonimlarni quyidagicha tasniflash oʻrinli deb oʻylaymiz:

a) **shaxs nomi + obod:** *Mirzaobod, Polvonobod, Qodirobod, Oʻrozobod, Mirobod, Oʻrinobod, Zafarobod, Hazratobod, Islomobod, Xoʻjaobod, Zumradobod, Temurobod;*

b) **obod + turdosh ot:** *Obodtepa, Obodgoʻsha, Oboddiyoy, Obodturmush, Obodxiyobon, Obodmavze, Obodmaskan, Obodmahalla, Oboddara;*

c) **turdosh ot + obod:** *Doʻstlarobod, Bogʻobod, Paxtaobod, Mehnatobod, Sherobod, Daryoobod, Sharqobod, Xalqobod, Mulkiobod, Dashtobod, Gulobod, Yoshlarobod, Husnobod.*

Demak, “Eroniy tillardan IX—X asrlarda oʻzbek tiliga oʻzlashgan *obod* soʻzi dastlab kishi ismlariga qoʻyilgan. XX asrda *obod* soʻzi narsa va belgi nomlariga qoʻshilib *qishloq, ovul, mahalla, guzar, koʻcha* nomlari yasalgani maʼlum: Paxtaobod, Xalqobod, Yangiobod, Bogʻobod nomi ham tildagi ana shu anʼana asosida yaratildi. Bogʻobod – bogʻli qishloq (mahalla, koʻcha, guzar). Istilqol davrida koʻcha nomiga aylandi”¹⁵.

Xullas, Kasbi tumanidagi *obod* komponentli koʻcha nomlarining har biri oʻz mazmun mohiyatiga ega, ayniqsa, mustaqillikdan keyin nomlarning yangilanishi istiqol sharofati bilan *Obodxiyobon, Obodmaskan, Obodmahalla* kabi koʻcha nomlarining yangitdan berilishini bunga misol qilish mumkin. *Obod* komponentli dromonimlar respublikamizning koʻplab hududlarida ham uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Adizova N.B. Buxoro tumani mikrotoponimlarining leksik- semantik tadqiqi: Filol fan. boʻyicha fals. dokt. (PhD) diss. – Buxoro. 2021
2. Karimov S.A., Boʻriyev S.N. Oʻzbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006. – B. 44.

¹³ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 tomli. 3-tom – Toshkent, 2022. – B. 428.

¹⁴ Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. – Toshkent, 2022. – B. 284.

¹⁵ Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va koʻcha nomlari. – Toshkent, 2008. – B. 33. 41.



Date: 19thDecember-2025

3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – B. 29.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomli. 3-tom – Toshkent, 2022. – B. 428.
5. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2022. – B. 284.
- ⁶. Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari. – Toshkent, 2008. – B. 33. 41.
7. <http://geonames.kadastr.uz>.

